

## YOSHLAR TIMSOLIDA AMIR TEMUR SIYMOSI

Nazarova Jasmina

Shahrisabz davlat Pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim 5-22 guruh talabasi

**Annotasiya:** Mazkur maqolada hozirgi yosh avlodlarning ko'z o'ngida Amir Temur siymosi qanday shakllanganligi ochib beriladi. Qolaversa, Mustaqillik yillarida Amir Temur bobomizga atalgan tashabbuslar ham ularga qilingan ehtiromlar haqida ham so'z boradi. Umumiy qilib aytganda yoshlar timsolida Amir Temur siymosi ochib beriladi .

**Tayanch so'zlar:** yetuk saltanat, mustaqillik, muvarounnahr, kuch-qudrat, adolat, tinchlik, siyosat, hikmatlar

Buyuk davlat arbobi, yetuk sarkarda, ilm-fanning homiysi deganda ko'z o'ngimizda, albatta, Amir Temur bobomiz keladi. Biz shunday yurtda, shunday bobokalonlarimizning avlodi bo'lib dunyoga kelganimizdan faxrlanishimiz va ularning izlaridan borishimiz darkor. Sohibqiron Amir Temur nihoyatda iqtidorli va bunyodkorlik ishlarini sevuvchi yetuk shaxs bo'lganligini biz bilamiz. Bu gapning isboti sifatida bobomiz qurgan imoratlarning hozirgi kungacha saqlanib saqlanib qolganligini ko'rsatishimiz mumkin. Hozirgi kunga kelib ham Sohibqiron bobomizning qilgan ishlari, amallari, harakatlari, qurgan imoratlari ustida izlanishlar olib boriladi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganidek: „Ulug' ajdodlarimizning o'zi yashagan zamonda, shu davrda Osiyo va Yevropa qit'alarida ro'y bergan juda katta tarixiy ahamiyatga molik o'zgarishlarga olib kelgan voqea – hodisalarga hal qiluvchi ta'siri, uning bu jarayonlardagi roli nainki tarixchi va siyosatchilar, harbiy va ilm mutaxassislari, balki badiiy ijod ahlining ham diqqat e'tiborini hali-hamon o'ziga jalb qilib kelmoqda“. Bugungi kunga kelib ham Sohibqiron bobomizning davlat tuzish sir- asrorlari, davlatda yuritgan siyosatlari haqida o'rganishimizning sabablari ko'pligini aytishimiz mumkin. Bu sabablarga misol tariqasida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

1. Sohibqiron Amir Temur bobomiz Muvarounnahrning hukmdori bo'lganliklarini bilamiz va bobomiz o'z davlatlarida quyidagi narsalarni ustun qo'yganlar: siyosatni, intizomni, qat'iy tartib-qoidani juda ustun qo'yganliklari bizga manbalar orqali yetib kelgandir.

2. Amir Temur bobomiz qariyb 400 yil davomida yashay olgan saltanatga asos soldilar. 400 yillik saltanatga asos solish ham boshqarish ham oson ish emas va osonlikcha ham erishilmagan natija ekanligi ma'lum. Amir Temur bashariyatning tarixiy xotirasiga serqirra faoliyat yuritgan shaxs sohibi, buyuk zotlardan biri sifatida saqlanib qolgan. O'zbekiston ham balki butun dunyo aholisi ham Amir Temur bobomiz haqida ko'plab ma'lumotlarga ega. Hozirgi kunda dunyo muzeylarida ham bobomizning meroslari, qoldirgan asarlari, saqlanib kelinmoqda. Buni qarangki, hur O'zbekistonimizga nisbatan bejizga „Ollohning nazari tushgan yurt“ deyilmagan. Haqiqatdan ham shunday. Barcha buyuk taniqli allomalar, olimlar, shoirlar, me'morlar, tabiblar barcha buyuk allomalar aynan bizning yurtimizdan yetishib chiqqani bu fikrimizning yorqin dalilidir. Temur bobomiz ham har sohada ustun bo'lganlar. Amir bobomiz haqida Paul Roux fikriga e'tibor qaratsak: „Temurga teng keladiganlar kam topiladi, Temurdan o'tadiganlar esa topilmasa kerak. Uning nomi Iskandar, Doro, Sezar, Chingizxon, Bonapatrilar bilan yonma -yon turadi. Temur insoniyat tarixining buyuk siymolaridandir. Shunday yurtda tug'ilganimdan, shunday bobokalonlarimizning avlodi ekanligimizdan biz yoshlar nihoyatda baxtiyormiz. Temur bobomiz haqida u kishining yuritgan siyosatlari haqida memuar asar bo'lmish „Temur tuzuklari“ orqali ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Bu asar bashariyat tarixida juda katta ahamiyatga ega., Temur tuzuklari “ni istalgan yurtning kutubxonalarida ko‘rishimiz ularning ham Amir Temur hayotiga befarq emas ekanliklarini anglatadi. Temur bobomiz bunyodkorlik ishlarini juda sevganlar. Shuning uchun ham ko‘plab madrasa, masjid, imoratlar, maqbaralar qurdirganlar. Bu imoratlar shunchalik sifatli qurilganidan hozirgi kungacha bo‘y cho‘zib turibdi. Bobomizning bu sohada juda ko‘p ish qilganlarini bir jumalari orqali isbotlash mumkin.: „Kimdir mening kuch-qudratimga shubha qilsa, barpo qilgan imoratlarimni ko‘rsin”. Amir Temur aytganidek.: „Yaxshi odam yurt tuzar, yomon odam yurt buzar”. Bu hikmatli so‘zga biz aynan o‘zlarining mos tushishlarini anglaymiz. Bobomizning hikmatli so‘zlarida boshlaridan o‘tkazgan haqiqatlar yotadi. Masalan:

Yaxshilarga – yaxshilik qildim ,yomonlarni esa o‘z yomonliklariga topshirdim. Kim menga do‘stlik qilgan bo‘lsa ,do‘stlik qadrini unutmadi va unga muruvvat, ehson, izzat-u Ikrom ko‘rsatdim.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng Birinchi prezidentimiz rahnamoligida Amir Temurning nomi, merosi qayta tiklandi. 1996- yil „ Amir Temur yili” deb e‘lon qilindi va shu yillarda Amir Temur ordenlari ta‘sis etildi. Muzeylar tashkil etildi, ko‘chalarga Amir Temur nomlari berildi. Amir Temur xayriya jamoa fondi tashkil etildi, Amir Temur xiyoboni barpo etildi. Bu o‘zgarishlar esa xalqimizning Amir Temur bobomizni nihoyatda e‘zozlashini ko‘rsatadi. Hozirgi yoshlarimizning ham siyosatga, iqtidorga, harakatiga, qat‘iyatiga aynan Amir Temur bobomizning ta‘sirini sezishimiz ham mumkin.

Mening bu maqoladan xulosam shuki, hozirgi barkamol avlodni yetuk inson bo‘lib shakllanishida bobokalonlarimizning o‘rni nihoyatda katta. Hozirgi yoshlarimiz ham xuddi Amir Temur bobomiz sen yetuk shaxs, millatparvar inson bo‘lib shakllanmoqdalar. Bizni ham dunyo O‘zbekiston farzandi, Amir Temur nabirasi, Buyuk allomalar avlodi deb atashi uchun chin dildan harakat qilamiz. O‘zbekistonimizni dunyoga tanitamiz. Biz ham o‘z timsolimizda bobolarimiz siyosini shakllantirishga qo‘limizdan kelganicha harakatdamiz.

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. I. Karimov „Bunyodkorlik yo‘lida” T.4-T.: „O‘zbekiston” 1996 yil
2. „Temur tuzuklari” - Toshkent 2020 yil.